

**“AGROBANK” aksiyadorlik tijorat banki**  
**aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi**  
**58 -sonli**  
**BAYONNOMASIDAN KO‘CHIRMA**

2026-yil 5-fevral  
soat 15-00

Toshkent shahar  
Botir Zokirov ko‘chasi, 2a

<b>Yig‘ilish raisi:</b>	N.Y.Xamraxudjaye - Bank Kuzatuv kengashi a‘zosi
<b>Ishtirokchilar:</b>	Bank aksiyadorlari, Boshqaruv a‘zolari va bankning tarkibiy tuzilmalari rahbarlari
<b>Jami ovoz beruvchi aksiyalar soni:</b>	<b>10 641 786 870 dona.</b>
<b>Ishtirok etgan ovozlar soni:</b>	<b>10 535 684 455 dona.</b>
<b>Yig‘ilish kvorumi:</b>	<b>99,0 foiz.</b>

Kuzatuv kengashi a‘zosi N.Y.Xamraxudjaye yig‘ilish raisi etib, bankning Korporativ boshqaruv xizmati boshqarmasi boshlig‘i v.v.b J.Marufov yig‘ilish kotibi etib saylandi.

**KUN TARTIBI**

3. Bank kuzatuv kengashi a‘zosini saylash.

**KUN TARTIBIDAGI MASALALAR BO‘YICHA ESHITILDI:**

**3. Bank Kuzatuv kengashi a‘zosini saylash.**

*(N.Y.Xamraxudjaye)*

Kun tartibidagi **uchinchi masala** bo‘yicha yig‘ilish raisi N.Y.Xamraxudjaye so‘zga chiqib, quyidagilarni ma‘lum qildi.

O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 65-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi 2025-yil 26-dekabrda 08/29-3-29294-sonli xatiga asosan vazirlik “Agrobank” ATB aksiyalariga egalik qilishi, shuningdek Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining 2025-yil 7-fevralda SHV-07/03-135-sonli ishonchnomasiga muvofiq, Iqtisodiyot va moliya vazirligi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasiga tegishli “Agrobank” ATB aksiyalarini boshqarishini inobatga olgan holda, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirish hamda uning kun tartibiga bank Kuzatuv kengashi a‘zosini saylash masalasini kiritish taklif etilgan.

Mazkur masala doirasida bank Kuzatuv kengashi a'zorigiga Tavrovskiy Yan Leonidovich nomzodi mustaqil a'zo sifatida taklif etilgan. Nomzodning ma'lumoti va mehnat faoliyati uning yuqori malakali mutaxassis ekanligini tasdiqlashi ta'kidlandi. Jumladan, u 1992 yilda Moskva aloqa institutini, 1994 yilda Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki huzuridagi Moskva bank maktabini, 1998 yilda esa London biznes maktabini tamomlab, MBA darajasini olgan.

Shuningdek, u 1998-2000 yillarda "Goldman Sachs International" investitsiya bankida mutaxassis, 2000-2025 yillarda "J.P. Morgan Securities Ltd", "Morgan Stanley bank", "J.P. Morgan Bank International" MChJ, "J.P. Morgan Chase Bank N.A." hamda "J.P. Morgan (Suisse) S.A." kabi xalqaro moliya institutlarida rahbarlik lavozimlarida ishlaganligi ma'lum qilindi. Nomzodning bank-moliya, investitsiya bankchiligi, risklarni boshqarish, strategiya, audit va IT sohalaridagi ko'p yillik tajribasi bank Kuzatuv kengashi faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 36-moddasiga hamda tegishli meyoriy hujjatlarga asosan, mazkur nomzod Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori qabul qilingandan so'ng, lavozimiga kirishishidan oldin O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishilishi lozimligi takidlandi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, Tavrovskiy Yan Leonidovich nomzodini bank Kuzatuv kengashi a'zorigiga mustaqil a'zo sifatida saylash taklif etildi va masala ovozga qo'yildi.

**Ovoz berish natijalari:**

**Tarafdorlar:** 10 535 684 455 ta ovoz, 100 foiz,

**Betaraflar:** 0 ta ovoz, 0 foiz,

**Qarshilar:** 0 ta ovoz, 0 foiz.

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni talablaridan kelib chiqib, kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan aksiyadorlar umumiy yig'ilishi

**QAROR QILADI:**

3. Tavrovskiy Yan Leonidovich bank Kuzatuv kengashi mustaqil a'zosi sifatida uch yil muddatga saylansin va uning nomzodi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishilgandan so'ng Kuzatuv kengashi a'zosi vazifasini bajarishga kirishilsin.

**Yig'ilish raisi**



**N.Y. Xamraxudjayev**

**Yig'ilish kotibi**



**J.O. Marufov**

2026 yil "12" fevral